



Jurnal vebssayti:
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

HINDISTON TASHQI SIYOSATINING KONSEPTUAL ASOSLARI VA ZAMONAVIY YO'NALISHLARI TAHLILI

Hilola Mustapova

O'qituvchi, PhD

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tashqi siyosatning fundamental asoslari, hayotiy muhim milliy manfaatlar, kuchlar nisbati, geosiyosiy omillar, Kashmir, mudofaa va xavfsizlik bo'yicha qo'shma tadqiqotlar, qo'shilmaslik harakati, taraqqiy ettirish, umumiy qurolsizlanish, global hamkorlik, ichki ishlarga aralashmaslik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hindistonning tashqi siyosati shakllanish bosqichlari, mamlakatning Janubiy Osiyo mintaqasidagi yetakchilik qilish va buyuk davlat sifatida namoyon bo'lishi asoslari, uning turli mintaqalaridagi geosiyosiy va geoqitsodiy manfaatlari, tashqi siyosatga doir turli loyihalari va tashabbuslari tahlili beriladi.

Mamlakat tashqi siyosatining strategik maqsadi bo'lmish global miqyosdagi davlatga aylanish g'oyasi mamlakat mustaqilligining dastlabki yillarda belgilab olingan edi. Hozirgi kunda kollektiv xavfsizlik va ko'p qutblilik prinsiplariga amal qilayotgan Dehli dunyoning deyarli barcha davlatlari bilan do'stona aloqalar o'rnatib, o'zining ko'p vektorli tashqi siyosatini jadallashtirmoqda.

Hindiston bir necha o'n yil davomida milliy davlatchilik qurilishi va davlatning mintaqaviy rolini shakllantirishda katta natijalarga erishdi. Ayniqsa, Hindiston Janubiy Osiyoning yirik davlatiga, balki yaqin o'n yillikda mintaqaviy va global miqyosda dunyoning qudratli mamlakatiga aylanishi tobora haqiqatga aylanib bormoqda.

Hindiston tashqi siyosiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu kichik, o'rta va yirik davlatlarni qamrab olgan qit'alar va yarim sharlar bo'ylab keng ko'lamlı diplomatik faoliyatdir. Hukumatning katta va kichik mamlakatlar bilan munosabatlarni "Vasudhaiva Kutumbakam", ya'ni "dunyo bir oila" ruhida qurishga undaydi. Dehli yaqin qo'shnilarini bilan munosabatlarni yaxshilash, Xitoy va Pokiston (mintaqadagi asosiy raqiblari) bilan aloqalarini mo'tadillashtirish, Afrika, Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyoning ayrim qismlari, Arab ko'rfazi va Hind okeani mintaqalaridagi pozisiyalarini tiklash uchun ko'p harakat

qildi. Shu bilan birga, Hindiston yetakchi davlatlar bilan, ayniqsa, Rossiya va AQSH bilan munosabatlarini yanada rivojlantirmoqda.

ANALYSIS OF CONCEPTUAL BASIS AND MODERN DIRECTIONS OF INDIAN FOREIGN POLICY

Hilola Mustapova

Teacher, Ph.D

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: fundamental principles of foreign policy, national interests, balance of power, geopolitical factors, Kashmir, joint defense and security research, non-alignment, development, general disarmament, global cooperation, non-intervention.

Abstract: This article provides information on the conditions for the formation of Indian foreign policy, the foundations of the leadership of country in South Asian region and its emergence as great power, its geopolitical and geo-economic manifestations in various regions, as well as various foreign policy projects and initiatives.

The strategic goal of the country's foreign policy has been the expansion of friendly relations with nearly all nations globally, reflecting the pursuit of independence in the early years of the nation. Currently, India is actively adhering to principles of collective security and multilateralism, fostering amicable ties with almost all countries worldwide and refining its multifaceted foreign policy. Over the past few decades, India has achieved significant results in establishing national identity and shaping its regional role, particularly expanding influence in South Asia and projecting itself as a powerful nation in the global arena. One distinctive feature of India's foreign policy is its extensive diplomatic engagement across continents and regions, embracing small, medium, and large states. The government's approach to relations with both major and minor nations is guided by the principle of "Vasudhaiva Kutumbakam" meaning "the world is one family." Delhi actively enhances ties with neighboring countries, manages relations with key regional rivals like China and Pakistan, and undertakes various initiatives to strengthen its positions in parts of Africa, Central and Southeast Asia, the Arabian Gulf, and the Indian Ocean region. Additionally, India is working to further develop its relations with leading powers, notably Russia and the United States.

АНАЛИЗ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ ОСНОВЫ И СОВРЕМЕННЫХ НАПРАВЛЕНИЙ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ ИНДИИ

Хилола Мустапова

Преподаватель, к.т.н.

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

основные принципы внешней политики, жизненно важные национальные интересы, баланс сил, geopolитические факторы, Кашмир, совместные исследования в области обороны и безопасности, неприсоединение, развитие, всеобщее разоружение, глобальное сотрудничество, невмешательство.

Аннотация: В данной статье представлена информация об этапах формирования внешней политики Индии, основах лидерства страны в Южноазиатском регионе и ее становлении как великой державы, ее geopolитических и геоэкономических интересах в различных регионах, а также различных внешнеполитических проектах и инициативах.

Идея становления глобального государства, являющаяся стратегической целью внешней политики страны, определилась еще в первые годы независимости страны. В настоящее время Дели, следуя принципам коллективной безопасности и многополярности, установил дружественные отношения практически со всеми странами мира и ускоряет свою многовекторную внешнюю политику.

Одной из отличительных особенностей внешней политики Индии является ее обширная дипломатическая деятельность на континентах и полушариях, охватывающая малые, средние и крупные страны. Призывает правительство строить отношения с большими и малыми странами в духе «Vasudhaiva Kutumbakam», то есть «мир – это одна семья». За несколько десятилетий Индия добилась больших результатов в построении национальной государственности и формировании региональной роли государства. В частности то, что Индия станет крупной страной в Южной Азии, а в следующем десятилетии уже могущественной державой в мире на региональном и глобальном уровне все более становится реальностью. Дели усердно работал над улучшением отношений со своими непосредственными соседями, смягчением своих отношений с Китаем и Пакистаном (его основными соперниками в регионе) и восстановлением своих позиций в Африке, некоторых частях Центральной и Юго-Восточной Азии, Персидском заливе и Индийском океане. Вместе с этим Индия также продолжает развивать отношения с ведущими странами, в особенности с Россией и США.

KIRISH

Hindistonning xorijiy davlatlar bilan so‘nggi o‘n yillikdagi foal diplomatik aloqalari tashqi siyosiy faoliyatning ko‘lamini oshirishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu Hindistonning mavjud ikki tomonlama munosabatlarini sifat jihatidan yaxshilanishiga, mintaqaviy va global muammolar bo‘yicha ta’sirini kuchaytirishga yordam berdi. Bu pragmatik tashabbuslar Hindistonning amaldagi Bosh vaziri N.Modi sa’y-harakatlari bilan yanada jadallahshdi. Bu esa, Hindiston nafaqat mintaqaviy, balki global lider davlatlar maqomiga da’vo qilishi uchun imkoniyatlar yaratdi.

TADQIQOTNING USULLARI

Hindiston tashqi siyosiy faoliyatining konseptual asoslari va zamonaviy yo‘nalishlarini tadqiq etish, Hindistonning turli mintaqalardagi geosiyosiy va geoqtisodiy manfaatlarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Usullar: maqolada qiyosiy, tizimli tahlil, nazariy-metodologik, statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi. Shuningdek, maqola tayyorlash jarayonida mavzuga doir ingliz, hind va rus olimlarining ilmiy ishlariga murojaat qilindi.

NATIJALAR

Natijalar va mulohaza. Davlatning siyosatini va hayotiy muhim milliy manfaatlarini aniqlash va belgilashda fundamental asoslardan biri uning geosiyosiy holati hisoblanadi. O‘z navbatida, geosiyosiy holat xalqaro maydonda milliy manfaatlar tizimining o‘zgaruvchan xususiyati, barqarorlik omillarini izlash va xalqaro munosabatlarni oldindan aytish yo‘llarini topish zarurati tufayli davlatlar va ularning milliy manfaatlari o‘rtasidagi kuchlar nisbatini aniqlash va shakllantirishni talab qiladi.

Muhim omillar orasida davlatning qulay geografik joylashuvi eng asosiy o‘rinni egallaydi. Xususan, Janubiy Osiyo mintaqasining markazida joylashgan Hindiston 3,287 ming km² maydoni bilan mintaqada hududining 73,5% ni tashkil qiladi. Shuningdek, u suvdagi 6083 km li va quruqlikdagi 15 200 km li chegaralari orqali dunyo davlatlari bilan bevosita bog‘lanib, keng xalqaro aloqalar o‘rnatish imkoniyatiga ega[1].

Bugun Hindiston Janubiy Osiyo mintaqasi davlatlariga nisbatan bir qator ustunliklarga ega bo‘lib, mintaqadagi butun aholining 76,5%, yalpi milliy mahsulotning 80% uning ulushiga to‘g‘ri keladi. Shu bois ham mintaqadagi siyosiy-iijtimoiy va iqtisodiy ahvol ko‘pincha ushbu qudratli davlatning tashqi siyosiy yo‘nalishi va faoliyatiga bevosita bog‘liq bo‘lib kelmoqda[2].

Shu bilan birga, Hindiston ko‘p millatli davlatdir. Mamlakatda 500 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi, ular 200 xil til va shevalarda so‘zlashadi. Aholining 82,7 foizi hinduizm, 13,8 foizi islam, 2,4 foizi nasroniylik diniga e’tiqod qiladi, sikxlar - 1,9, buddaviylar esa 0,8 foizni tashkil etadi.

Bugun Hindiston mamlakatdagi ichki muammolarning yechimini topishga harakat qilish bilan bir vaqtda, o‘z strategiyasi hamda oldiga qo‘ygan maqsadi sari yuritayotgan ichki va tashqi siyosati orqali dunyodagi buyuk davlatlar qatorida munosib o‘rin egallashga intilmoqda. Uning bu g‘oyasi 1947-yilda mustaqillikka erishgan yillaridan boshlab davlat siyosatida strategik maqsadga aylangan. Xususan, 1956-yilda bosh vaziri J.Neruning “Hindistonning bosh strategik maqsadi — buyuk davlat maqomiga ega bo‘lish hamda AQSH, Sovet Ittifoqi va Xitoydan keyingi to‘rtinchli o‘rinni egallash” [3], degan so‘zleri bunga yaqqol dalil bo‘la oladi.

Mamlakat mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq o‘z tashqi siyosatining asoslarini belgilab oldi. O‘zining milliy manfaatlarni himoya qilish va hayotga tatbiq etish mamlakat tashqi siyosatning ustuvor vazifasiga aylandi.

Hindistonning an‘anaviy tashqi siyosati doimo Javaharlal Neruning “jahon — misli bir oila”[4] degan g‘oyasiga tayanib kelgan. Ushbu g‘oya esa Hindiston tashqi siyosatining tinchlik va barqarorlikni asrash, xalqaro hamkorlik, qo‘silmaslik harakatini taraqqiy ettirish, umumiy quolsizlanish, global hamkorlik va ichki ishlarga aralashmaslik orqali rivojlanishdan ortda qolayotgan jamiyatlar va davlatlarni taraqqiy ettirish kabi asosiy g‘oyalari shakllanishiga turki bo‘ldi.

Hindiston davlatchiligi murakkab sharoitlarda shakllandidi. Javaharlal Neru bosh vazir bo‘lgan davrda hukumat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat edi:

birinchidan, davlat apparatini hindilashtirish va mamlakatda Buyuk Britaniya harbiy kuchlarining ta’sirini butunlay bartaraf etish;

ikkinchidan, Mauntbeten rejasiga ko‘ra, knyazliklar Hindiston tarkibiga kirishi uchun o‘zaro manfaatli kelishuvga erishish, ya’ni knyazlar o‘z mol-mulklarini saqlab qolish evaziga siyosiy hokimiyatdan voz kechishi va shu bilan birga davlat arboblari maqomiga ega bo‘lishi;

uchinchidan, diniy qarama-qarshilikni tugatishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish (bu davrda ushbu qarama-qarshiliklar natijasida deyarli 1 mln kishi vafot etgan, 12 mln qochqin paydo bo‘lgan);

to‘rtinchidan, bo‘linish natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlarni (xomashyo yetishtirish sohalarining Pokistonda qolib ketishi, chegara oldida irrigatsiya va transport aloqalarining izdan chiqishi, qochqinlar va ishsizlar muammosini) bartaraf etish;

beshinchidan, mamlakat ichida o‘ng va so‘l kuchlar o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi natijasida ijtimoiy-siyosiy beqarorlikning yuzaga kelish ehtimolini tugatish[5].

Ma’lumki, Hindiston tashqi siyosatining shakllanishida tinch totuv yashashning besh asosiy qoidasi—«pancha shilla» (hind tilida besh asosiy qoida) ahamiyati katta. Bular:

- 1) hududiy yaxlitlik va suverenitetga nisbatan o‘zaro hurmat ko‘rsatish;
- 2) o‘zaro hujum qilmaslik;
- 3) bir-birining ichki ishlari aralashmaslik;
- 4) tenglik va o‘zaro manfaatdorlik;
- 5) tinch-totuv yashash.

Ilk bor ushbu qoidalar 1954-yili Hindiston Xitoy bitimida qayd etilgan bo‘lib, o‘sha davrdan boshlab xalqaro munosabalar amaliyoti va mafkurasiga singib ketgan[6].

Ma’lumki, Ikkinci jahon urushi yakunlangach xalqaro munosabatlarda ikki qutbli dunyo shakllandi. Ammo ana shu davrda ushbu bloklarga qo‘shilmagan mamlakatlar yangi harakatni yuzaga keltirishdi. U Qo‘shilmaslik harakati nomini oldi. Hindiston tashqi siyosatida Qo‘shilmaslik harakati muhim o‘rin tutadi. 1983-yil Nyu-Dehlidagi sammitda Qo‘shilmaslik harakati va rivojlanayotgan davlatlarni tadqiq etish va tahlil tizimi tashkil etildi[7].

Hindistonning sobiq tashqi ishlari vaziri Yashvant Singx 2002-yil noyabr oyida Dehli milliy kollejidagi chiqishida: «Qo‘shilmaslik harakati tufayli Hindiston xalqaro munosabatlarda muhim rol o‘ynamoqda” [8], — deb ta’kidlagan edi. 2003-yil fevral oyida Qo‘shilmaslik harakatining Kuala Lumpur shahrida o‘tkazilgan 13-sammitida Hindiston bosh vaziri Atal Bixari Vajpai zamonamizning asosiy muammolariga e’tibor qaratib, Harakatning barcha a’zolari birlashishi lozimligini aytgandi.

Ayni vaqtida, Hindiston tashqi siyosatida bir qator muhim o‘tish davri xususiyatlari mavjud edi:

birinchidan, tashqi siyosatda iqtisodiy omilning o‘sib borishi;

ikkinchidan, «uchinchi dunyo» mamlakatlariga yetakchilik qilish va buyuk davlat sifatida namoyon bo‘lish;

uchinchidan, aksilg‘arb fikrlaridan voz kechish;

to‘rtinchidan, tashqi siyosatda idealizmdan realizm tomon burilish[9].

Hindistonning sobiq tashqi ishlari vaziri K.Natvar Singx parlamentning quyi palatasidagi munozaralarda savollarga javob berar ekan, Hindiston tashqi siyosati muayyan voqealarga yo‘naltirilgan yondashuvlardan jarayonlarga yo‘naltirilgan yondashuvlar sari tadrijiy rivojlanganligini ta’kidlagan edi[10].

Yuqoridagi ustuvor maqsadlar sari intilgan Hindiston XX asrning 85–90-yillardan boshlab katta muvaffaqiyatlarga erishib, mintqa va jahonda yetakchilik qilish borasidagi imkoniyatlarini kengaytirdi[11]. Tabiiyki, Hindistonning bu yutuqlarga erishishiga qator omillar sabab bo‘lib, mamlakatning tashqi siyosiy faoliyati kuchayishiga imkon yaratmoqda.

Hindistonning sobiq tashqi ishlari vaziri Pranab Mukerji “ITAP-TACC” axborot agentligiga bergen intervyusida mamlakat tashqi siyosati haqida quyidagilarini aytgan edi: «Hindiston tashqi siyosati davlatning milliy manfaatlariga asoslangan bo‘lib, hech bir davlatga qarshi qaratilmagan. Ammo Hindiston bir qutbli dunyo g‘oyasini ham qabul qila olmaydi»[12].

Hindistonning tashqi siyosiy qarorlar qabul qilish modeli mustaqillikka erishilgan dastlabki yillardan buyon deyarli o‘zgarishsiz qolmoqda. Bevosita qaror qabul qilish jarayonida 3–5 kishi, jumladan vazirlar (avvalo, tashqi ishlari va mudofaa vazirlari) hamda bosh maslahatchilar ishtirot etadi. Hindiston tashqi siyosatining yo‘nalishini belgilashda bosh vazir asosiy o‘rin tutadi[13].

Xalqaro munosabatlarda ikki qutbli tizim barham topganidan so‘ng Hindistonda jadal iqtisodiy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Shu sababdan hukumat 1991-yildan boshlab mamlakatning dunyodagi o‘rni va ahamiyati borasida jiddiy muhokamalar, tahlillar olib bora boshladi. Mamlakatning ilm-fan, texnologiyalar borasidagi xalqaro nufuzini oshirish, dunyo siyosatida muhim o‘ringa ega bo‘lish maqsadlarini ko‘zlagan holda tashqi siyosiy nazariyalar jiddiy ko‘rib chiqila boshlandi[14].

Hindistonlik taniqli iqtisodchi S.Rao: «Hindiston iqtisodiyotini xorijiy investisiyalarsiz, yirik xorijiy sarmoyalarsiz jiddiy isloh qilib bo‘lmaydi»[15], degan g‘oyani ilgari surgandi. 1991-yilda hokimiyat tepasiga kelgan N.Rao boshchiligidagi Hindiston milliy kongressi hukumati ikki muammoga duch keldi: birinchisi — boshqa mamlakatlar bilan yangi tashqi siyosiy o‘zaro aloqa modelini topish, ikkinchisi — Hindistonning butunjahon erkin iqtisodiy modeliga qo‘shilishida yordam beradigan islohotlarni o‘tkazish zarurati edi. Odadta ijtimoiy jihatdan muhim sohalar va iqtisodiy rivojlanish vositalarini tanlashga nisbatan ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo‘ladigan hind rahbariyati davlat tomonidan tartibga solishning hindcha an‘analarini hisobga olgan holda iqtisodiy o‘sishni tezlashtirishga yo‘naltirilgan islohotlarning “o‘rtacha yo‘li”ni tanladi. N.Rao rahbarligida ikki qutbli davrdan keyingi Hindiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlariga asos solinib, avvalo, ASEAN (Look East Policy siyosati doirasida), sharqda Yaponiya va Janubiy Koreya bilan munosabatlarni rivojlantirish, hind iqtisodiyotiga “Osiyo yo‘lbarslari” hamda iqtisodiy jihatdan qudratli boshqa davlatlarning investisiya va texnologiyalarini jalg qilish boshlandi[16].

Hindistonda M.Singx hukumatining tashqi siyosat borasidagi yondashuvlari avvalgi hukumatning asosiy yo‘nalishlaridan keskin farq qilmasa-da, ayrim o‘ziga xos jihatlari ham bor edi. Ular Birlashgan Ilg‘or Alyans tomonidan qabul qilingan «Qo‘shma minimum dastur»da[17]. o‘z ifodasini topgan va quyidagilarga yo‘naltirilgan edi:

Janubiy Osiyodagi qo‘sni davlatlar bilan yaqin siyosiy, iqtisodiy va boshqa turdagи aloqalarni rivojlantirish hamda Mintaqaviy hamkorlik bo‘yicha Janubiy Osiyo uyushmasi (South Asian Association for Regional Cooperation — SAARC) mustahkamlashga ustuvorlik berish, suv resurslari hamda energetika va ekoliya muammolarini bartaraf etishga qaratilgan mintaqaviy loyihalarga alohida e’tibor berish, barcha masalalar bo‘yicha Pokiston bilan muloqotni tizimli va uzlusiz asosda davom ettirish, Shri-Lankada diniy va milliy ozchilik o‘rtasida olib borilayotgan hududiy yaxlitlik va birdamlikni ta’minlashga qaratilgan tinchlik muzokaralarini qo‘llab-quvvatlash, Xitoy Xalq Respublikasi bilan savdo va investisiyani kengaytirish hamda chegara oldi masalalari bo‘yicha muzokaralarni davom ettirish, Sharqiy Osiyo mamlakatları bilan aloqalarni jadallashtirish, Yaqin Sharq davlatları bilan an‘anaviy aloqalarni rivojlantirishga yangi turki berish, mintaqaviy va global masalalar borasida Hindiston tashqi siyosatida mustaqil pozisiya egallagan holda AQSH bilan yaqin strategik va iqtisodiy aloqalarni saqlab turish, jahoning siyosiy va iqtisodiy tizimida ko‘p qutblilik prinsipini qo‘llab-quvvatlash.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tishda Hindiston boshqa rivojlanayotgan davlatlardan ilgarilab borayotganiga qaramay, ularning hech birida bunday «an‘anaviy» muammolar yo‘q. Ularning eng muhimlari mamlakatdagi o‘nlab ko‘p sonli xalqlarning ayrmachilik kayfiyatları va bu bilan bog‘liq bo‘lgan til masalasi, kam sonli millatlar va elatlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, mahalliychilik, separatizm va boshqa shu kabi muammolardir[18].

Hindiston rahbariyati mazkur muammolarni bartaraf etish va mamlakatning ichki imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan harakatlarni jalal tarzda olib bordi. 2003-yilda Hindistonning o‘scha davrdagi Prezidenti Abdul Qalam davlat mustaqilligining 56 yilligiga bag‘ishlangan nutqida 2020-yilgacha mo‘ljallangan taraqqiyot dasturini e’lon qildi. Unda quyidagi beshta aniq vazifa qo‘yilgan edi: 1) dengiz yo‘llari orqali aloqalarni kengaytirish; 2) mintaqaning energiya salohiyatidan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish; 3) qishloqlarda shahar sharoitini yaratish; 4) axborot texnologiyalari sohasini yanada rivojlantirish; 5) xalqaro turizmn keng joriy etish.

Bugun Hindiston hukumiati mamlakat oldida turgan tashqi siyosiy vazifalarning muhimligini chuqr his qilmoqda, hozirgi xalqaro vaziyat ularning bajarilishini qiyinlashtirishi mumkinligini ham inobatga olmoqda. Dehlini Xitoyning yuksak iqtisodiy salohiyati va ulkan harbiy imkoniyatlari tashvishga solmoqda. Hozirda Hindiston bilan Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida yuqori darajadagi diplomatik munosabatlar o‘rnatalganiga qaramay, bu ikki davlat “asosiy geosiyosiy raqiblar[19]. hisoblanadi. Shuningdek, Xitoy—AQSH munosabatlarida iqtisodiy va boshqa ayrim masalalarda ziddiyatli holatlar kuzatilmoqda. Dehli bilan Pekin o‘rtasida ham shu kabi muammolar bor, chunki AQSH

XXI asr boshidan buyon Hindistonni o‘zining global alyansiga tortish borasidagi harakatlarini to‘xtatgani yo‘q[20].

Rossiya—Hindiston—Xitoy (RHX) uchligi Osiyodagi eng yirik uchta davlatning hamkorligi bo‘lib, bu uchta davlat dunyo quruqlik maydonining 19% va aholisining taxminan 37% ini tashkil etadi. Uchala davlat ham yadroviy kuchlarga ega, ulardan ikkitasi (Rossiya va Xitoy) — BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a’zolari, Hindiston ham ana shunday maqomga intilmoqda. RHX uchburchagi konsepsiysi Rossiyaning sobiq bosh vaziri Yevgeniy Primakov tomonidan ishlab chiqilgan. Bir qarashda, Hindiston va Xitoy o‘rtasidagi hamda o‘tmishda SSSR bilan Xitoy o‘rtasida mavjud bo‘lgan keskin munosabatlarni hisobga olsak, RHX jiddiy birlashmaga aylanishi dargumon. Biroq “uchlik”ni Pekin va Moskva o‘rtasidagi o‘sib borayotgan hamkorlik hamda Rossiya bilan Hindiston o‘rtasidagi uzoq yillik do’stlik bog‘lab turadi. Shu bois, ma’lum ma’noda, Rossiya Hindiston va Xitoy bilan yaqin aloqalari tufayli mustahkam ko‘prik vazifasini bajarmoqda[21].

Bunday uch tomonlama hamkorlikning afzalligi shundaki, u Yevrosiyoda xavfsizlik arxitekturasi asoslarini muhokama qilish uchun muhim forumga aylanishi mumkin, chunki har uchala davlat ham, turli darajada bo‘lsa-da, Yevroсио maydonida muhim o‘yinchilar hisoblanadi. Hindistonning Rossiyyadagi sobiq elchisi Ajay Malxotraning fikricha, RHX ayrim muammolarga oid mintaqaviy yondashuvlarni ishlab chiqish va narkotik moddalar savdosi, terrorizm, kiberjinoyatchilik va boshqa global ofatlarga qarshi mintaqaviy kurashda ham samarali bo‘lishi mumkin.

RHX a’zolari o‘rtasidagi davomiy hamkorlik ularga Yaqin Sharqdagi barqarlikni ta’minalash singari umumiy yondashuvga ega bo‘lgan boshqa masalalarda ham hamkorlik qilish imkonini beradi. 2016-yilda RHX tashqi ishlar vazirlarining “Osiyo—Tinch okeani mintaqasida tinchlik va barqarorlikni o‘rnatish hamda ochiq, inkyuziv, bo‘linmas va shaffof arxitekturani barpo etish yo‘lida hamkorlik” bayonoti qabul qilinganligi ushbu formatning ahamiyatini belgilovchi muhim voqeа bo‘ldi[22]. Avvalroq, Osiyo—Tinch okeani mintaqasi xavfsizlik arxitekturasini barpo etish uchun Sharqiy Osiyo sammiti doirasida sa’y-harakatlarni amalga oshirish niyati ham bildirilgan edi[23].

Shuningdek, yana bir intilish — Dehlining mintaqadagi yetakchilik rolini mustahkamlash va kelajakda global davlatga aylantirish — ustuvor vazifa bo‘lmoqda. Bugun Hindiston uchun iqtisodiyotda yuqori o‘sish sur’atini va modernizatsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash, shu orqali esa kelajakdagи ko‘plab muammolarni, chunonchi mamlakat oldida turgan kambag‘allikni yo‘q qilish va ko‘plab ish o‘rinlari yaratish kabi masalalarni hal qilish ham asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi[24].

Hindistonning asosiy partiyalaridan biri BJP (Bxaratiya janata partiyasi)ning eng muhim tashabbuslaridan biri — xorijdan investisiyalarni jalb qilish, innovatsiyalar yaratish, iqtisodiyotning muhim sohalarida xodimlarning ko‘nikmalarini rivojlanirishga mo‘ljallangan “Hindistonda ishlab chiqarilgan” (Make in India) dasturi bo‘ldi. Dastur doirasida xorijiy investorlarda mablag‘larni hind harbiy-sanoat majmuasi (HSM), temir yo‘l qurilishi, koinotni tadqiq etish va chakana savdoga kiritish imkonи paydo bo‘ldi. Bir qator tahlillarga ko‘ra, Narendra Modi 2014-yilgi saylovoldi tashviqoti vaqtida saylovchilarga taqdim etilgan ulkan rejalarini to‘liq amalga oshira olmagan bo‘lsa-da, unga bo‘lgan ishonch shu darajada yuqori ediki, hukumat ko‘pchilik aholiga uncha yoqmaydigan, lekin ko‘rilishi shart bo‘lgan bir qator iqtisodiy choralarни qo‘llashiga to‘g‘ri keldi: korrupsiya va terrorizmni qo‘llab-quvvatlashga qarshi qaratilgan, ammo keng aholi qatlamlariga zarar keltirgan 500 va 1000 rupiylik yirik pul kupyuralari muomaladan chiqarildi[25].

Janubiy Osiyo mintaqasi bo‘yicha taniqli mutaxassislar hisoblanadigan V.Ya.Belokreniskiy va S.I.Luney Hindiston hal qilgan va hal qilishda davom etayotgan umumiy vazifalarning quyidagi uchta guruhini sanab o‘tishgan[26].

1. *Funksional manfaatlar* (ichki funksiyalarning rivojlanishini ta’minalash): to‘liq iqtisodiy mustaqillikka erishish; iqtisodiy rivojlanish; tashqi bozorlarga kirish va zamonaviy texnologiyalar joriy etilishiga erishish; dunyo iqtisodiy global mashuviga Hindistonni tadrijiy ravishda va nazorat ostida yo‘naltirish;

2. *Koekzistensional manfaatlar* (xalqaro miqyosdagi muhim rolini mustahkamlash): mustaqil tashqi siyosat yo'naliшини давом ettirish; Hindistonning dunyodagi nufuzini ko'tarish va jahonda buyuk davlat maqomida qabul qilinishiga erishish; mintaqa darajasida rivojlanish harakatlarini yuqori bosqichga ko'tarish;

3. *Ekzistensional manfaatlar* (mamlakat xavfsizligini mustahkamlash): mudofaa salohiyatini ko'tarish; jahondagi buyuk davlatlar bilan mojarolar kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik; bir necha jabhalarda davlatning global, mintaqaviy tashqi va ichki xavfsizlikka erishish harakatlarini kuchaytirish[27].

Ma'lumki, Hindistonning tashqi siyosati uning "Katta strategiya"si kontekstida taqdim etiladi va unda butun dunyo uch doiraga ajratiladi:

Birinchi halqa asosan Hindistonning yaqin qo'shnilarini qamrab olgan bo'lib, unda Deli uchinchi tomonning aralashuviga javoban ustuvorlik va veto huquqiga intilmoqda.

Osiyoda kengaytirilgan qo'shnichilik (shu jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari) deb nomlangan va Hind okeani qirg'oqlari bo'ylab joylashgan *ikkinchi halqa* doirasida u boshqa kuchlarning ta'sirini muvozanatlashga va ular mamlakat manfaatlariga zid kelmasligiga intiladi;

Butun dunyo sahnasini aks ettiruvchi *uchinchi halqada* Hindiston xalqaro tinchlik va xavfsizlikning muhim aktorlaridan bo'lgan buyuk davlatlardan biri bo'lishga harakat qilmoqda[28].

Hozirgi bosqichda *Hindiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari* quyidagilardan iborat: xalqlarning o'z huquqini belgilash harakatlarini qo'llab-quvvatlash, xalq va irqlarning batamom tengligini ta'minlash, harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik, Osiyon yangi kuch sifatida tan olish, Hindistonni esa geosiyosiy ta'sir va kuch markaziga aylantirish, kam rivojlangan mamlakatlarni global miqyosda qo'llab-quvvatlash, transhind dengiz yo'llari ustidan nazorat o'rnatish uchun kurashish. Hindiston xalqaro tashkilotlar bilan aloqa o'rnatish ekan, birinchi galda BMT tizimini isloh qilish, ayniqsa voto huquqiga ega bo'lish orqali Hindistonning Xavfsizlik Kengashi tarkibiga doimiy a'zo sifatida kiritilishiga erishishga e'tibor qaratmoqda. BMTning tinchlikparvar operatsiyalarda hind harbiylarining ishtirot etishi mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo'naliшlaridan biri hisoblanadi. BMT tashkil topganidan buyon dunyo bo'yicha o'tkazilgan 59 ta tinchlikparvar operatsiyaning 41 tasida Hindiston bevosita ishtirot etgan. 2003–2004-yillar mobaynida hind harbiylari 16 ta BMT tinchlikparvar operatsiyasining 8 tasida, jumladan, Sudanda, Livanda, Efiopiya bilan Eritreya o'rtasidagi mojaroda, Kongo Demokratik Respublikasi, Quvayt, Burundi, Kosovodagi mojarolarni bartaraf qilishda ishtirot etgan. 2004-yilning o'zida turli mamlakatlardagi tinchlikparvar operatsiyalarda 5500 nafar hind askari va zabit qatnashgan[29]. Bu ko'rsatkich 2014-yilga kelib 7860 nafarni tashkil etdi[30].

2021-yilda ularning soni 5591[31] nafarni tashkil qildi. Bu esa xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda Hindistonning salmoqli hissasi bor degan xulosa chiqarishimizga asos bo'la oladi.

Terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash Hindiston tashqi siyosatining diqqat markazida qolib kelmoqda. Hindiston terrorizmga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy asoslarini mustahkamlash tarafdoi bo'lib, tashqi siyosiy faoliyatining asosini yaratish maqsadida BMT doirasida qator tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda. Jumladan, Hindiston «Xalqaro terrorizmga qarshi kurashish haqidagi keng qamrovli konvensiya» loyihasini taqdim etdi.

Hindiston «Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha qo'shma ishchi guruh tuzish haqida»gi bitimni nafaqat O'zbekiston, balki Rossiya, XXR, Buyuk Britaniya, Qozog'iston, Isroil, Bangladesh, Myanma, Shri-Lanka, Tailand, Nepal, Butan va boshqa bir qator davlatlar bilan ham imzolaganligini qayd etish joiz.

Ayni vaqtida, Hindiston o'z imkoniyatlari kengayishi bilan birga yadroviy jarayonlar bo'yicha dunyoda shakllanayotgan yangi tartibot muvozanatini ham e'tiborga olishi lozim. Chunki, Osiyo mintaqasida Hindistonga nisbatan yadroviy masalalar bo'yicha uchta davlat: shimoldan — Xitoy, g'arbdan — Pokiston, janubdan esa AQSH davlati nazorat qilishi ehtimoldan xoli emas. Zero, AQSH Janubiy Osiyo mintaqasida "AQSH—Hindiston—Pokiston "uchburchagi"ning yetakchi boshqaruvchisi bo'lishga intilib kelayotgani" [32] hech kimga sir emas.

Hozirgi davrda Hindiston tashqi siyosatida bir qancha tendensiyalarni kuzatish mumkin. AQSH bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlash va Rossiya bilan strategik hamkorlikni davom ettirish; Fransiya va Germaniya davlatlari bilan aloqalarni sezilarli darajada yaqinlashtirish; XXR bilan mintaqaviy muloqotni davom ettirish; Pokiston bilan o'rtadagi keskinlikni yumshatish va siyosiy muloqotni yo'lga qo'yish; xalqaro muammolarni bartaraf etishda asosiy o'rinni BMTga berish hamda istiqbolda uning samaradorligini yanada oshirish ana shular jumlasidandir.

Dehli o'zining tashqi siyosatini muvozanatlash maqsadida Qo'shilmaslik harakati prinsiplariga sodiqligi va binobarin, o'z tashqi siyosatida har qanday davlat, jumladan AQSHning strategik maqsadlaridan mustaqilligini doimo barchaga eslatib turibdi. Ushbu holat mamlakatga bir vaqtning o'zida Yevrosiyoning qudratli davlatlari (Rossiya, Xitoy va boshqalar) bilan ham, Yevroatlantika hamjamiyati bilan ham munosabatlar o'matishda ko'proq siyosiy imkoniyat taqdim etmoqda[33].

Xususan, Dehli AQSHning chinakam strategik hamkori va ittifoqchisi bo'lgani holda, agar uning manfaatlariga mos kelsa, Moskvaning ham siyosatini qo'llab-quvvatlamоqда. Xususan, Hindiston mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish maqsadida Yevroсиyo iqtisodiy makoni g'oyasini qo'llab-quvvatlamоqда. Ayni vaqtda Hindiston o'zining BRIKSdagi ishtirokini ham jadallashtirmoqda va uzoq kuzatishlardan so'ng, nihoyat, SHXTga to'laqonli a'zo sifatida qo'shildi[34].

XULOSA

Xulosa. Hindiston tashqi siyosatining rasmiy konsepsiysi mavjud emasligi bois uning tashqi siyosati yo'naliшlarini davlat rahbariyatining rasmiy bayonotlari, chiqishlari, qo'shma deklaratsiyalari orqali o'rganish mumkinligi aniqlandi.

Davlat o'zining xalqaro maydondagi mavqeini oshirishga, jahon miqyosidagi siyosiy jarayonlarga ta'sirini kuchaytirish va o'zi uchun strategik muhim bo'lgan mintaqalardagi iqtisodiy va siyosiy ishtirokini ta'minlashga intilmoqda.

Hindiston yuqorida keltirilgan strategik maqsadlariga erishish uchun o'z tashqi siyosatini bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqda. Hozirgi kunda mamlakat miqyosida olib borilayotgan har tomonlama faoliyat tufayli muayyan yutuqlarga erishilib, davlatning imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ayniqsa uning ichki imkoniyatlari darajasining avvalgi yillardagidan tez o'sayotgani mamlakat tashqi siyosiy faoliyatining kuchayib ketishiga turtki bo'ldi.

Mamlakat tashqi siyosati an'analari harbiy ittifoqlarda ishtirok qilmaslik va mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsiplariga tayanadi. Hindiston, bir tomondan, uzoq istiqbolda jahon miqyosida yadroviy quroldan voz kechish g'oyasini ilgari sursa, boshqa tomonidan, «potensial raqibini tiyib turish» maqsadida yadro quroliga ega bo'lish fikrini bildirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Нартов Н.А. Станет ли Индийский океан зоной мира // Геополитика. — М., 2004. — С. 429.
2. Қаранг: I.P.Khosla. SAARC looking ahead // Indian Foreign Policy: Challenges and Opportunities Edition Sinha A.; Mohta M. New Delhi: Academic Foundation, 2007. — P. 245.
3. Нартов Н.А. Геополитика: Учебник для вузов. — М.: ЮНИТИ, 2004. — С. 412.
4. Singh S. Focus of Foreign Policy // The Hindustan Times. — 1996. — August 13.
5. Основные проблемы и этапы развития независимой Индии // URL: http://www.history.kemsu.ru/PUBLIC/govorov/gov_2-8-13.htm
6. Абдураззоқова М. XX аср иккинчи ярми жаҳон тарихи.—Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000. — Б.187.
7. Қаранг: A.K.Domodaran. Non-Aligned movement and its future // Indian Foreign Policy: Challenges and Opportunities Edition Sinha A.; Mohta M. — New Delhi: Academic Foundation, 2007. — P. 124–138.
8. Яшвант Синкха. Аспекты внешней политики Индии. МИД. — Нью-Дели, 2003. — С. 69.

9. C.Raja Mohan. India's new foreign policy strategy. Strategic Affairs Editor the Indian Express, New Delhi URL: <https://carnegieendowment.org/files/Mohan.pdf>
10. The Hindu Times. 2004, December 8.
11. India's Foreign Policy: 2014–19: Landmarks, achievements and challenges ahead. By: Amb (Retd) Achal Malhotra. Central University of Rajasthan. July 22, 2019. // URL: <https://mea.gov.in/distinguished-lectures-detail.htm?833>
12. Эксклюзивное интервью МИД Индии Пранаб Мукержи // Компас. Вестник иностранной информации ИТАР-ТАСС. — 2009. — №20 (15 мая).
13. Лунев С.И. Внешняя политика Индии и воздействие на нее внутренних факторов // Вестник МГИМО — Университета. — 2010. — № 1. — С. 189–201.
14. Лунев С.И. Внешняя политика Индии и воздействие на нее внутренних факторов // Вестник МГИМО — Университета. — 2010. — № 1. — С. 189–201.
15. К вопросу о реформировании экономики Индии // Компас. Вестник иностранной информации ИТАР-ТАСС. — 1996. — №18. (29 апр.)
16. Куприянов А. В., Макаревич Г. Г. Индия в постбиполярную эпоху: тридцатилетие поиска места в мире ИМЭМО РАН, Москва, Россия file: // /C:/Users/User/Downloads/374–890–1-SM.pdf
17. О совместной программе минимуме // Компас. Вестник иностранной информации ИТАР-ТАСС. — 2005. — №18 (23 июля).
18. Основные проблемы и этапы развития независимой Индии // Политический атлас современности // URL: <http://www.hyno.ru/tom2/320.html>
19. Белокреницкий В.Я. Южная Азия: новые возможности и риски для России // Внешняя политика России 2000–2020: Научное издание в 3 томах / Отв.редактор И.С.Иванов. РСМД. — М.: Аспект Пресс, 2012. — С. 169.
20. Белокреницкий В.Я. Южная Азия: новые возможности и риски для России // Внешняя политика России 2000–2020: Научное издание в 3 томах / Отв.редактор И.С.Иванов. РСМД. — М.: Аспект Пресс, 2012. — С. 169.
21. Подходы Индии к многостороннему сотрудничеству и евразийским институтам // URL: https://globalaffairs.ru/articles/podhody-indii-k-mnogo_storo_nne_mu_sotrudnichestvu-i-evrazijskim-institutam/30.01.2019
22. Подходы Индии к многостороннему сотрудничеству и евразийским институтам // URL: https://globalaffairs.ru/articles/podhody-indii-k-mnogo_storo_nne_mu_sotrudnichestvu-i-evrazijskim-institutam/30.01.2019
23. Devirupa Mitra Consultations on Asia, Illegal Drug Trade and Cyber Security: Key Takeaways from Russia-India-China Summit <https://thewire.in/diplomacy/consultations-on-asia-illegal-drug-trade-and-cyber-security-key-takeaways-from-russia-india-china-summit>
24. NonAlignment 2.0: A Foreign and Strategic Policy for India in the Twenty First Century // Center for Policy Research. P.7. Available at: // URL: <https://cprindia.org/research/reports/nonalignment-20-foreign-and-strategic-policy-india-twenty-first-century>
25. Куприянов А.В., Макаревич Г.Г. Индия в постбиполярную эпоху: тридцатилетие поиска места в мире // URL: https://www.interanalytics.org/jour/article/view/374?locale=ru_RU
26. Лунев С.И. Внешняя политика Индии и воздействие на нее внутренних факторов // Вестник МГИМО Университета. — 2010. — № 1. — С. 189–201.
27. Лунев С.И. Внешняя политика Индии и воздействие на нее внутренних факторов // Вестник МГИМО Университета. — 2010. — № 1. — С. 189–201.
28. Белокреницкий В.Я. Южная Азия: новые возможности и риски для России // Внешняя политика России 2000–2020: Научное издание в 3 томах / Отв.редактор И.С.Иванов. РСМД. Т. 1. — М.: Аспект Пресс, 2012. — С. 169.
29. «О совместной программе минимуме» // Компас. Вестник иностранной информации ИТАР-ТАСС. — 2005. — №18 (23 июля).

30. Indian Army United Nations peacekeeping missions. //URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Indian_Army_United_Nations_peacekeeping_missions

31. Страны, предоставляющие воинские и полицейские контингенты <https://peacekeeping.un.org/ru/troop-and-police-contributors>

32. Вананн А. Гегемониальная стабильность, новый «квентиги» и другие // Мировая экономика и международные отношения. — 2014. — № 5. — С. 111.

33.Юлдашева Г.И. Геополитические процессы в современной Центральной Азии: Иран и США. — Т.: Niso poligraf, 2018. — Б. 139.

34.Юлдашева Г.И. Геополитические процессы в современной Центральной Азии: Иран и США. — Т.: Niso poligraf, 2018. — Б. 139.